BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 18-oktabr | 494-2-39-Q/24 | Peshku tuman hokimligi

2025 - yilda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 11.12.2017-y, 09/17/965/0393-son) Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.Peshku tumani aholi bandligiga ko‘maklashish markazining ish joylarini eng kam miqdorini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o‘rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 191 kishini tashkil etadigan, 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota yoki ona, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 23,0 foiz (44 kishi);

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun 55,0 foiz (105 kishi);

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1,6 foiz (3 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulotda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 1,6 foiz (3 kishi);

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,1 foiz (6 kishi);

Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2,1 foiz (4 kishi);

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 1.0 foiz (2 kishi);

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1,0 foiz (2 kishi);

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 8,9 foiz (17 kishi);

Boshqa toifadagi shaxslar uchun 2,6 foiz (5 kishi);

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5.O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qarorning ikkinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

7. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (T.Umarov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Peshku ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **V.Qahhorov**

Peshku tuman hokimining
2024-yil 18-oktabrdagi
494-2-39-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025-yilda Peshku tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Korxona va tashkilot ro‘yxati	Ishlov-chilar soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shundan									
				O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogiron bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarining ota-onalari uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga zga bo‘lgan yoshlar uchun	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulotda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	Nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun	ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan boshqa toifadagi shaxslar uchun
1.	“Avisena tekstil” MCHJ	21	1	1									
2.	“Peshku”tekstil ko‘rki” oilaviy korxonasi	46	3	2									**1**
3.	Paxta tozalash zavodi aksionerlik	322	22	4	6		2	4	2		2	2	

	jamiyati												
4.	“Iftixor nahori” xususiy korxonasi	25	1		1								
5.	“To‘yqulboy chorvo” fyermer xo‘jaligi	49	3	1					1			1	
6.	“Mahmudobod” fyermer xo‘jaligi	59	4	2								1	1
7.	“Gulshan” fyermer xo‘jaligi	45	3	1								1	1
8.	“Rashid Savri” fyermer xo‘jaligi	41	2	1								1	
9.	“Oston Yo‘ldosh” fyermer xo‘jaligi	35	2	1								1	
10.	“Sayfi Farrux” fyermer xo‘jaligi	39	2	1								1	
11.	“Ko‘hna zamin yog‘dusi” fyermer xo‘jaligi	39	2	1								1	
12.	Tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi	99	6	1	2		1			1		1	
13.	Tibbiyot birlashmasi	2039	49	2	41			2				4	
14.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	45	3	1	2								
15.	Abu Ali Ibn Sino nomidagi	105	5	2	3								

	jamoat salomatligi texnikumi												
16.	1-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi	71	4	2	2								
17.	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	39	2		2								
18.	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	3	1	2								
19.	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	91	2	1	1								
20.	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	61	4	1	2	1							
21.	20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	43	3	1	2								
22.	30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	69	4	1	2	1							
23.	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	4		3	1							
24.	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	3		3								
25.	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	59	4	1	3								
26.	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	49	3	1	2								
27.	21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	45	2	1	1								
28.	31-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta	77	3		3								

	ta’lim maktabi												
29.	28- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	52	3	1	2								
30.	1-son kasb-hunar maktabi	76	4	1	2								1
31.	2-son kasb-hunar maktabi	58	4	1	2								1
32.	13-son bolalar va o‘smirlar musiqa maktabi	44	3		3								
33.	32- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	58	3	1	2								
34.	29- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	51	2	2									
35.	41- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	47	2	2									
36.	46- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	4	1	3								
37.	Tuman olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan makt ab internati	58	2	1					1				
38.	12-son MTT	24	1		1								
39.	29-son MTT	25	1		1								
40.	14-son	25	1		1								

	MTT												
41.	19-son MTT	25	1		1								
42.	22 -son MTT	24	1		1								
43.	3 -son MTT	24	1		1								
44.	5 -son MTT	25	1		1								
45.	Obodonlashtirish boshqarmasi	219	8	3	1					1		3	
	JAMI	**4701**	**191**	**44**	**105**	**3**	**3**	**6**	**4**	**2**	**2**	**17**	**5**